



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

**HUKMDOR SHAXSIDA INSONIYLIK MASALASI  
(ALISHER NAVOIY “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI BAHROM OBRAZI MISOLIDA)**

**Saidakbarova Muqaddasxon**

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, PhD

**Jo‘rayeva Dilovarxon Valijon qizi**

Qo‘qon davlat universiteti, talaba

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonidagi shoh Bahrom shaxsining badiiy talqini tahlil qilinadi. Unda hukmdor obrazi sifatida Bahromning adolat va shijoati, shaxsiy fazilatlari hamda salbiy jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, doston voqealarida uning oshiqlik kechinmalari, nafs qurboni sifatidagi tasviri va bu orqali ifodalangan tarbiyaviy g‘oyalar yoritiladi. Bahrom obrazi Navoiy ijodida mukammal inson timsoli va nafs girdobiga tushgan shaxs sifatida qarama-qarshi jihatlarida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, “Sab’ai sayyor”, Bahrom obrazi, hukmdor talqini, shaxsiy fazilatlari, oshiqlik, nafs.

**ПРОБЛЕМА ЧЕЛОВЕЧНОСТИ В ЛИЧНОСТИ ПРАВИТЕЛЯ  
(НА ПРИМЕРЕ ОБРАЗА БАХРОМА В ПОЭМЕ САБАИ САЙЁР АЛИШЕР НАВОИ)**

**Сайдакбарова Мукаддасхон**

доцент Кокандского государственного университета, PhD

**Жураева Диловархон Валиджон кизи**

Кокандский государственный университет, студентка

**Аннотация**

В статье анализируется художественная интерпретация образа шаха Бахрама в эпической поэме Алишера Навои «Сабай сайёр». Раскрываются справедливость и мужество Бахрама, его личные качества и отрицательные стороны как образа правителя. Также освещаются его любовные переживания, образ жертвы похоти и воспитательные идеи, выраженные через это в событиях эпоса. Образ Бахрама в творчестве Навои анализируется в контрастных аспектах как воплощение совершенного человека и человека, попавшего в пучину похоти.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, «Сабай сайёр», образ Бахрама, интерпретация правителя, личностные качества, любовь, страстность.

**THE ISSUE OF HUMANITY IN THE RULER’S PERSONALITY  
(BASED ON THE IMAGE OF BAHROM IN SAB’AI SAYYOR BY ALISHER NAVOIY)**

**Saidakbarova Muqaddasxon**

Associate Professor at Kokand State University, PhD

**Jo‘rayeva Dilovarxon Valijon qizi**

Kokand State University, Student

**Abstract**

The article analyzes the artistic interpretation of the personality of Shah Bahram in Alisher Navai's epic poem "Sab'ai sayyor". It reveals Bahram's justice and courage, personal qualities and negative aspects as an image of a ruler. Also, his love experiences, his image as a victim of lust and the educational ideas expressed through this in the events of the epic are highlighted. The image of Bahram in Navai's work is analyzed in contrasting aspects as an embodiment of a perfect person and a person who has fallen into the whirlpool of lust.

**Keywords:** Alisher Navai, "Sab'ai sayyor", the image of Bahram, interpretation of the ruler, personal qualities, love, lust.

Badiiy adabiyot insoniyat tafakkuri, ijtimoiy-siyosiy hayoti va ma’naviy olamini o‘zida aks ettiruvchi eng muhim san’at turlaridan biridir. Adabiy asarlarda hukmdor obrazi doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Chunki hukmdor shaxsida nafaqat siyosiy hokimiyat, balki xalqning orzu-intilishlari, ijtimoiy adolatga bo‘lgan ehtiyoji ham mujassam bo‘ladi. Shu bois adabiyot tarixida hukmdor obrazi ko‘pincha ikki xil qiyofada tasvirlangan: ideal va adolatli shoh hamda zolim va mustabid hukmdor.

Alisher Navoiyning “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor” deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Asarning bosh qahramoni Bahrom tarixiy shaxs sifatida Eronning sasoniy hukmdori Varaxranga borib taqaladi. Bu podsho qulon (yovvoyi kiyik)ni ovlashga nihoyatda o‘ch bo‘lganligi uchun xalq orasida Bahrom Go‘r (qulon) laqabi bilan shuhrat topgan. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom deb atalib, jang-u jadallar homiysi sifatida talqin qilinadi. Hazrat Navoiy ushbu dostonida hukmdor

obrazi talqiniga alohida yondashadi. Asarda Shoh Bahrom shaxsida hukmdorning ikki qiyofasi — adolatli va ideal shoh hamda o'z nafsiga berilgan, xato qiluvchi hukmdor timsoli mujassam etilgan. Navoiy Bahrom obrazini yaratishda uning siyosiy faoliyati, shaxsiy kechinmalari va muhabbat sarguzashtlarini tasvirlash orqali hokimiyat va insoniylik, adolat va shaxsiy hirs o'rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy talqin qiladi [6, 132-b.].

#### Adabiyotlar tahlili

Alisher Navoiy ijodi va xususan “Xamsa” dostoni, jumladan “Sab’ai sayyor” asari bo’yicha o’zbek navoiyshunosligida keng ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda Bahrom obrazi turli jihatlaridan — tarixiy, badiiy, falsafiy va axloqiy nuqtai nazardan yoritilgan.

Avvalo, Navoiy ijodini tizimli o’rganishda Sh. Sirojiddinovning “Alisher Navoiy” asari muhim o’rin tutadi. Muallif Navoiy ijodiy merosini tarixiy-biografik kontekstda tahlil qilib, “Xamsa” tarkibidagi dostonlarning g’oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib beradi. Xususan, “Sab’ai sayyor” dostonida hukmdor obrazi ideal va real shaxs sifatida qarama-qarshi tasvirlanganini ta’kidlaydi. Bu manbada Bahrom obrazining dualistik mohiyati — adolatli shoh va nafsga berilgan inson sifatidagi qarama-qarshiliklari yoritilgan [2, 112-b.].

Y. Is’hoqovning “Navoiy poetikasi” asarida esa Navoiy ijodining poetik tizimi, obraz yaratish usullari va ramziy tafakkur asoslari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Sab’ai sayyor” dostonidagi ramziy qatlamlar, xususan, Bahrom obrazi orqali insoniy kamolot va ma’naviy inqiroz muammosi ifodalangani qayd etiladi. Muallif Bahrom obrazini faqat tarixiy shaxs emas, balki badiiy-falsafiy timsol sifatida talqin qiladi [3, 96-b.].

M. Saidakbarovanning “Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari” asarida esa Navoiy ijodining tasavvufiy ildizlari yoritilgan. Ushbu manbada “Sab’ai sayyor”dagi voqealar, ayniqsa, Bahromning nafsga berilishi tasavvufiy talqin asosida izohlanadi. Nafs va ruh o’rtasidagi kurash inson kamolotining asosiy mezon sifatida ko’rsatiladi [4, 54-b.].

Shuningdek, “Navoiy asarlari lug’ati” (P. Shamsiyev, S. Ibrohimov) Navoiy matnlaridagi leksik birliklar va ularning ma’nolarini ochib berishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu lug’at orqali “Sab’ai sayyor” matnidagi murakkab poetik obrazlar, jumladan, “shoh”, “adolat”, “nafs”, “ishq” kabi tushunchalarning semantik qatlamlari aniqlashtiriladi [5, 210-b.].

Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova va O. Davlatov tomonidan yaratilgan “Navoiyshunoslik” asarida esa Navoiy ijodi zamonaviy ilmiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Unda “Sab’ai sayyor” dostoni kompozitsiyasi, syujet qurilishi va obrazlar tizimi ilmiy jihatdan yoritilib, Bahrom obrazi markaziy konfliktini ifodalovchi timsol sifatida baholanadi [6, 145-b.].

D. Yusupovanning “Aruz va mumtoz poetikaga kirish” asari esa Navoiy she’riyati vazn tizimini o’rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbada “Sab’ai sayyor”dagi baytlar aruz tizimi asosida tahlil qilinib, Bahrom obrazi bilan bog’liq she’riy parchalarning ritmik va estetik xususiyatlari ko’rsatiladi [7, 88-b.].

Shuningdek, I. Haqqulning maqolalarida Navoiy shaxsiyati va ijodiy imkoniyatlari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Muallif Bahrom obrazini Navoiy ijodida inson ruhiy evolyutsiyasining murakkab modeli sifatida talqin etadi, unda shohlik va insoniylik ziddiyati markaziy o’rin egallaydi [9, 4-b.].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, Bahrom obrazi Navoiy ijodida murakkab badiiy-falsafiy timsol bo’lib, u orqali hukmdor shaxsining ichki ziddiyatlari, nafs va adolat o’rtasidagi kurash hamda insoniy kamolot masalasi yoritilgan.

#### Metodologiya

Ushbu tadqiqotda Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi Bahrom obrazi misolida hukmdor shaxsida insoniylik masalasi adabiy-nazariy va badiiy tahlil metodlari asosida o’rganildi. Asosiy metod sifatida tarixiy-qiyosiy yondashuv qo’llanilib, Bahrom obrazining tarixiy shaxsdan badiiy timsolga aylanish jarayoni yoritildi.

Shuningdek, matnni struktural-semantik tahlil qilish orqali doston baytlarida aks etgan ijobiy va salbiy jihatlar ajratib olindi. Badiiy-poetik tahlil yordamida esa obrazning estetik va ramziy mohiyati ochib berildi. Tadqiqotda ilmiy manbalar va elektron resurslardan kompleks ravishda foydalanildi.

#### Natija va muhokama

Bahrom aslida tarixiy shaxs sifatida arab va fors manbalarida ham tilga olinadi. Ammo Navoiy o’z asarida uni badiiy obraz darajasiga ko’taradi. Shoir Bahromni voqealar markaziga qo’yib, uning siyosiy faoliyati bilan shaxsiy hayoti uyg’unligini ochib beradi.

“Saltanat surdi moh to mohi,

Moh to mohi el shahanshohi.  
Rumu Chin bo'ldilar anga mahkum,  
Balki xoqoni Chinu qaysari Rum.  
Sham'i davlat falak yorutti anga,  
Rub'i maskun qaror tutti anga" [10, 56-b.].

Navoiy bu baytlar orqali Bahromning saltanati keng, adolati butun dunyoga yoyilgan, davrining eng qudratli hukmdori bo'lganini madh etadi. Bunda Bahrom obraziga jahonshumul ideal hukmdor timsoli yuklangan.

Doston davomida Bahromning ayrim qarorlari adolat va xalq manfaati bilan bog'liq holda talqin etiladi.

"Kim bu shukronag'a qi, qildi iloh,  
Meni bu nav' olam ahlig'a shoh.  
Elni shod aylamak kerakdur menu,  
Adlu dod aylamak kerakdur men.  
Komsiz komin aylamak hosil,  
Benavolarni aylamak xushdil" [10, 58-b.].

Bu baytlar orqali shoir shunday mazmunni ifodalaydi: Shoh Bahrom Alloh bergan ne'mat — podshohlik uchun shukr qiladi va o'zini xalq xizmatiga bag'ishlashi lozimligini anglaydi. U elni shod etishni, adolat bilan hukm yuritishni, ehtiyojmandlarning orzusini ro'yobga chiqarishni, bechoralarni xursand qilishni o'z vazifasi deb biladi. Bu baytlarda Bahromning hukmdor sifatidagi asosiy burchi — shukr, adolat va xalqparvarlik tamoyillari asosida ko'rsatilgan.

U ilm, san'at va hunarga mehr qo'ygan shoh sifatida tasvirlanadi.

"Saydsiz bo'lmas erdi oromi,  
Anda rudu surud edi komi.  
Uqi har sayd sori topsa kushod,  
Zaxmidin sayd emas edi ozod" [10, 57-b.].

Bu baytlarda Shoh Bahromning o'ziga xos iqtidori, ya'ni mohir mergan ekanligi tasvirlangan.

Hazrat Navoiy Shoh Bahrom obrazini tasvirlar ekan, uni nafaqat adolatli hukmdor, balki insoniy zaifliklarga beriluvchi shaxs sifatida ham ochib beradi. Asarda Bahromning salbiy qiyofasi, xususan, nafs va ishq domiga mukkasidan ketishi markaziy o'rin egallaydi. Shohning lazzatparastlikka berilishi uning davlat boshqaruvi mas'uliyatidan chekinishiga, hukmdorlik vazifalarini unutib qo'yishiga sabab bo'ladi. Shaxsiy ehtiros va nafs istaklarini ustun qo'yganligi oqibatida u nafaqat adolat tamoyillarini buzadi, balki ijtimoiy tartibot va xalq manfaatiga ham beparvo qaraydi.

Bahrom obrazi Navoiy talqinida nafsga berilgan hukmdorning fojiaiy taqdiri timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

"To'kubon sayd qoni paydarpay,  
Anga hamrang tortar erdi may.  
Tushubon, topib anda komu farah,  
Aysh etib, tortar erdi necha qadah.  
Lahni changu rubob edi haryon,  
Sayd etidin kabob edi biron" [10, 57-b.].

Bu baytlar Shoh Bahromning ov va bazm sahnasini tasvirlaydi. Ov paytida sayd qoni mayga qo'shilib oqadi, ov manzarasi bazm bilan uyg'unlashadi. Shoh o'lja topib xursand bo'ladi, may ichib aysh-u ishrat qiladi, chang va rubob sadolari yangraydi, ov go'shtidan kabob tayyorlanib bazm bezatiladi.

Uning ehtirolari va shaxsiy hirsga berilishi ba'zan davlat ishlaridan chalg'itadi.

"Shah chu ul lahv ila bo'lub mash'uf,  
Ishidan topmas erdi hech vuquf.  
Mulk ishi zabtu rabtsiz bo'ldi,  
Saltanat amri zabtsiz bo'ldi.  
Qilmadi shah chu dodxohni yod,  
El ilik sundi qilg'ali bedod.  
Mulk chun shoh adlidan qoldi,  
Qildi har kim ne kim qila oldi" [10, 77-b.].

Bu baytlar Shoh Bahromning lahv-u ishratga berilib, davlat ishlaridan chalg'ib ketishini ko'rsatadi. U faqat o'yin-kulgu va xushkayfiyat bilan mashg'ul bo'lib, mamlakat boshqaruviga e'tibor

bermaydi. Natijada adolat unutiladi, xalq zulm ostida qoladi, har kim o'zicha ish yuritib, tartibsizlik avj oladi. Baytlarda Bahromning adolatdan yuz o'girishi oqibatida mamlakatda beqarorlik va bedodlik kuchaygani tasvirlanadi.

Bu orqali Navoiy hukmdor shaxsida insoniy zaifliklarni ham ko'rsatadi. Bahrom obrazi shunchaki bir shohning hayoti emas, balki hukmdor shaxsining ideal va zaif tomonlari birlashtirilgan ramziy timsoldir. Navoiy bu obraz orqali shoh shaxsida adolat, insoniylik va nafs o'rtasidagi kurashni badiiy tarzda ifodalaydi.

Shoh Bahrom obrazi "Sab'ai sayyor" dostonida nafaqat hukmdor sifatida, balki oshiq inson qiyofasida ham yorqin ifodalanadi. Bahromning ichki dunyosida hukmdorlik vazifalari va muhabbat kechinmalari o'zaro to'qnashadi. Bahromning oshiq sifatidagi obrazida sevgi-muhabbatning inson ruhiyatiga ta'siri, oshiqning sabr-toqati, sadoqati va iztiroblari badiiy yoritiladi. Navoiy oshiqning qalb olamini shohona hayot va tantana bilan qarama-qarshi qo'yib, Bahrom timsolida oshiqlikning kuchli ma'naviy-ruhiy qudratini ko'rsatadi.

"Ko'ngildin sabr chun kanora qilib,  
Yana surat sori nazora qilib,  
Ko'rubon chun habib suratini,  
Raf' etib hajrining kuduratini" [10, 66-b.].

Bu baytlarda oshiqning hajr (ayriliq) iztiroblaridan charchab, sabrni tark etib, yor surati sari yuzlanishi tasvirlangan. U sevgilining go'zal qiyofasiga tikilib, shundan taskin topadi va hijronning achchiq alamini yengib o'tadi. Baytlarda oshiqning hijron azobidan najot topishi yor surati bilan bog'langan holda ifodalangan.

Hazrat Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonining yakuniy sahnalarida Shoh Bahromning fojiaiy qismatini ochib beradi. Podshoh o'z salomatligini tiklab, yana bazm-u aysh-ishratga mukkasidan ketadi, vaqtini yetti qasr va go'zal mahbubasi Dilorom bilan may-u musiqa bag'rida o'tkazadi. Lekin uning nafsparastligi va rahmsizligi nihoyatida halokatga olib keladi. Ov manzarasida minglab hayvonlarning qoni to'kilishi, begunoh jonzorlarga qilinayotgan shafqatsizlik shoh va uning lashkarini botqoqqa sudrab ketadi. Bahrom va Dilorom bir-birini mahkam quchgan holda yer ostiga g'arq bo'ladilar.

"Sher ila jayron ul maqom ichra,  
Tushtilar chun bu nav' dom ichra.  
Yuz tuman sheru jayron o'ldi chu g'arq,  
Sheru jayron aro o'larda ne farq?  
Bildilar oshkoru pinhoni,  
Yo'q ekanni qutulmoq imkoni.  
Sa'y ila bir-birin tutushtilar,  
Mug'tanam anglabon quchushtilar.  
Bor edi ul quchushmoq andoq rust  
Kim, bir o'ldilar iki hamdam chust.  
Buyla vahdat chu oshkor o'ldi,  
Bir-biriga ikov shikor o'ldi.  
Go'rdur borchu olam ahlig'a qism,  
Anga Bahromi Go'r edi xud ism" [10, 293-b.].

Bu baytlar Bahrom obrazi orqali hayotning foniyligi, qudratning ham so'nishi, oxir-oqibat hamma uchun qabr borligi g'oyasini ifodalaydi.

Yuqoridagi tahlillarimizga asoslangan holda "Sab'ai sayyor" dostonidagi Shoh Bahrom obraziga bildirilgan munosabatlarni quyidagi jadvalda jamladik.

| № | Ijobiy jihatlar                                                                                         | Salbiy jihatlar                                                                           |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | <b>Mohir mergan</b> \n"Uqi har sayd sori topsa kushod, \nZaxmidin sayd emas edi ozod."                  | <b>Mayparast</b> \n"To'kubon sayd qoni paydarpay, \nAnga hamrang tortar erdi may."        |
| 2 | <b>Shokir (shukr qiluvchi)</b> \n"Kim bu shukronag'a qi, qildi iloh, \nMeni bu nav' olam ahlig'a shoh." | <b>Shuhratparast</b> \n"Shah chu ko'rguzdi ishda bu oyin, \nTama' etti nigoridin tahsin." |
| 3 | <b>Rahmdil</b> \n"Ko'ngli mayl ayladi bag'oyat anga, \nAylamak istadi rioyat anga."                     | <b>Zolim</b> \n"Istadi qatl aylamak oni, \nKesmak ozod sarvi ra'noni."                    |
| 4 | <b>Qiziquvchan</b> \n"O'zunga bizni sohib asror et, \nUl nihon nuqtadin xabardor et."                   | <b>Shafqatsiz</b> \n"Ikki gisusidin kamand aylab, \nTashladilar g'ulula band aylab."      |
| 5 | <b>Oqil</b> \n"Elni shod aylamak kerakdur menu, \nAdlu                                                  | —                                                                                         |



|   |                                                                                                 |   |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
|   | dod aylamak kerakdur men.”                                                                      |   |
| 6 | <b>Nadomatli</b> \n“Dedi: «O‘z jonima ne qildim, voy!<br>\nBo‘lurin buyla ish ne bildim, voy!»” | — |
| 7 | <b>Saxiy</b> \n“Shoh Bahrom abri ehsoni, \nLutf birla<br>ko‘kortti oni.”                        | — |
| 8 | <b>Mushohadali</b> \n“Ki: «Agar bo‘lsa shohlig‘ boqiy,<br>\nTopilur buyla mohvash soqiy.»”      | — |

#### Xulosa

Alisher Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonida Shoh Bahrom timsoli orqali hukmdor shaxsining murakkab mohiyatini badiiy-falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Unda hukmdorlik fazilatlar va insoniy zaifliklar uyg‘un holda tasvirlanib, nafs, ehtiros va mas’uliyat masalasi markaziy nuqtaga chiqariladi. Navoiy hukmdorning shaxsiy xulq-atvori davlat va jamiyat taqdiriga bevosita ta’sir etishini ta’kidlab, axloqiy yetuklikni adolatli boshqaruvning muhim sharti sifatida ilgari suradi. Shoh Bahrom obrazi esa shaxsiy ehtiroslar girdobida qolgan hukmdorning fojiaiy timsoli bo‘lib, adib bu orqali nafsni jilovlash va ma’naviy kamolotni ta’minlash zarurligini badiiy-estetik xulosaga aylantiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Navoiy A. Xamsa. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. — 512 b.
2. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. — Toshkent: Akademnashr, 2011. — 240 b.
3. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. — Toshkent: Fan, 1998. — 184 b.
4. Saidakbarova M. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari. — Toshkent, 2023. — 176 b.
5. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. — Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1972. — 368 b.
6. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. — Toshkent: Tamaddun, 2018. — 312 b.
7. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. — Toshkent: Malik Print Co, 2021. — 200 b.
8. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. — Toshkent: Akademnashr, 2011. — 240 b.
9. Haqqul I. Navoiy shaxsi va ijodiy imkoniyatlari [Elektron resurs]. — URL: kh-davron.uz
10. ZiyoUz Information Portal [Elektron resurs]. — URL: ZiyoUz